

JADIDCHILIK VA AXLOQIY ONG TRANSFORMATSIYASI:SHARQ
MODERNIZATSIYASINING FALSAFIY TAHLILI

Ortiqova Husnora Bekbo'lsin qizi

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Falsafa mutaxassisligi 1-
bosqich magistranti khusnoraartikova@gmail.com*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada jadidchilik harakati axloqiy ongning transformatsiyasi nuqtayi nazaridan falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Jadidchilik XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Sharq jamiyatida yuz bergan modernizatsiya jarayonining muhim intellektual va ma'naviy asosi sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda jadid mutafakkirlarining axloq, ma'rifat, mas'uliyat, shaxs erkinligi va jamiyat taraqqiyoti haqidagi qarashlari an'anaviy axloqiy tasavvurlar bilan qiyosiy o'rganiladi. Muallif jadidchilikni faqat siyosiy yoki pedagogik harakat emas, balki axloqiy ongni yangilashga qaratilgan konseptual loyiha sifatida asoslaydi. Shuningdek, jadidchilik g'oyalari global modernizatsiya jarayonlari va zamonaviy axloqiy muammolar kontekstida baholanadi. Tadqiqot natijalari jadidchilik merosining bugungi kunda ham axloqiy tafakkur va ijtimoiy taraqqiyot uchun dolzarb ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *axloq, jadidchilik harakati, axloqiy ong, ma'rifat, ijtimoiy mas'uliyat, shaxs erkinligi, g'oya, modernizatsiya, global modernizatsiya, falsafiy tahlil.*

“Mushtarak tariximizning yorqin sahifalarini tashkil etadigan ma'rifatparvar ajdodlarimizning ibratli faoliyatini, ularning o'z qimmatini va ahamiyatini hamon yo'qotmasdan kelayotgan boy merosini hamkor davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar vakillari, taniqli xorijiy olimlar bilan birgalikda teran tadqiq va targ'ib etish bizning ustuvor vazifamizdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

Kirish. *Jadidchilik yoki jadidizm-XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston va boshqa musulmon o'lkalarida vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy harakat vakillari. Ular millatni jaholatdan qutqarish, yangi usul maktablari, matbuot va til islohotlari orqali taraqqiyotga erishish hamda mustaqil Turkiston davlatchiligini barpo etishni maqsad qilgan.*

Ushbu harakat vujudga kelish tarixi esa, dastlab Qrimda Ismoil Gaspirali rahbarligida qrim tatarlar o'rtasida vujudga kelgan.

Jadidchilik harakati namoyandalari ko'pincha o'zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. O'sha davrning ilg'or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar.

Jadidchilik mohiyat e'tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi.Va albatta asosiy maqsad ta'lim tizimini isloh qilib,aholini ko'p qismini savodli qilish edi.

Xo'sh ushbu harakatning namoyondalari kimlar va ular bunday xavfli davrda qanday choralar orqali o'z maqsadlarini amalga oshirishdi?

Asosiy.Jadidlar maktablarda yoshlarni bilimli va ma'rifatli qilib tarbiyalab, ular orqali Turkistonda mustaqil davlat barpo etish uchun milliy davlatchilik g'oyalarini ilgari surgan. Markaziy Osiyoda jadidchilik harakati uchga,Buxoro,Xiva,Qo'qon xonliklari jadidlariga bo'lingan.

XX asr boshiga kelib Turkistonda jadid ziyolilarining butun bir avlodi, o'lka ma'naviy-ma'rifiy soha taraqqiyotiga, milliy madaniyatning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan namoyondalari vujudga keldi. Bular Samarqandda Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Said ahmad Siddiqiy Ajziy, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Buxoroda Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Fayzulla Xo'jayev, Farg'ona vodiysida Hamza Hakimzoda Niyoziy, Obidjon Mahmudov, Abdulhamid Cho'lpon, Is'hoqxon Ibrat, Xivada Boboovun Salimov, Polvonniyoz hoji Yusupov va boshqalar edi. Ular vatanparvar, ma'rifatparvar, Turkiston o'lkasida jadidchilik harakatining asoschilari va rahnamolari hisoblanadi.

Turkiston jadidchilik harakatining namoyandalari ma'rifatparvar kishilar edi.

Siyosiy ma'noda ma'rifatparvarlik xalqni ozodlikka olib chiqish va milliy davlatchilik g'oyalarini ilgari surish bilan ifodalanadi. Turkiston ma'rifatparvarlari jaholat, bilimsizlik, madaniyatsizlik, mutaassiblik, diniy aqidaparastlikni inson azob-uqubatlarning asl sabablari deya talqin etdilar. Ular podsho yakkahukmronligi (absolyutizm)ga qarshi kurashdilar, siyosiy erkinlik va inson huquqlarini yoqlab chiqdilar.Aynan shu sabab juda katta cheklovlarga ham duch kelishgan.Ammo ular bor kuchi va sarmoyasi bilan xalqni,jamiyatni ilm olishiga zamin yaratib berishgan.

Lekin O'rta Osiyo jadid ziyolilarining istilochilarga qarshi kurashida ularning ahvoli havas qilgudek bo'lmagan,chunki chorizm ma'muriyati ular faoliyatini tinimsiz ta'qib qilib kelar edi.[4]

Jadidlar asosiy ishini matbuot sohasida yangiliklar qilish bilan boshlashdi.Turkistondagi ilk gazeta 1906-yil 14-iyun kuni tatar taraqqiyparvari Ismoil Obidiy muharrirligi ostida chop etilgan "Taraqqiy"gazetasi hisoblanadi.

"Taraqqiy"gazetasining kirish maqolasi Ismoil Obidiyning "Toshkent 14-iyun" maqolasi bo'lgan. Unda muharrir Turkiston musulmonlariga murojaat qilib, barchani o'zaro nizolarga chek qo'yib, birlikka chaqiradi. Gazetaning shiori ham maqsadidan kelib chiqqan holda "**Najot: maslakda sabot; to'g'rilikni ijobat**" deb belgilandi.

Undan tashqari 1914-yil 3-apreldan Qo'qon shahrida "Sadoi Farg'ona", 1917-yil 23-mart kuni "Najot", 1917-yil 16-aprel kuni "Hurriyat" va boshqa gazetalar bosilib chiqqan va jamiyatni oz bo'lsada ijtimoiy tuzumdan,qaramlikdan ogohlantirishni

⁴ "XX asr O'zbek adabiyotiga chizgilar" 14-bet.Toshkent"Ma'naviyat"-2001

maqsad qilingan edi. Ammo hech qaysi gazeta uzoq muddat faoliyat olib bormagan. Chunki barcha gazetalar faoliyati chorizm vakillari tomonidan majburiy to'xtatilgan va aholining juda oz qismi savodli bo'lganligi sabab ushbu gazetalaradagi fikrlar xalqqa yetib borishi biroz mushkul bo'lgan. Ammo jadidlar bu bilan cheklanib qolmagan, jumladan 1911-yilda Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan "Padarkush" dramasi yozilgan va xalqqa taqdim etiladi. Behbudiy bu bilan xalqni ilmsizlik insonni jaholatga olib borishi mumkinligi haqida ogohlantirmoqchi bo'lgan. Undan tashqari teatr truppalari ham tashkil qilingan. Umumiy qilib aytadigan bo'lsak jadidlar bor kuchlari bilan millat ongini uyg'otish, ma'naviyatni mustahkamlash va kelajak avlod uchun zamonaviy jamiyat barpo etishga harakat qildilar.

"Jadidchilik, shunchaki bir ma'rifiy, madaniy harakatigina emas edi. Buni sovet siyosatchilari yaxshi bilar edilar. Shunchaki harakat bo'lganida ular qatag'on qilinmas edilar. Ularga «xalq dushmani», «Vatan xoini» degan tavqi la'natlar yopishtirilmas edi".^[5]

Darhaqiqat jadidchilik harakatini falsafiy jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak — bu kitob va maktab bilan cheklanib qolgan harakat emas, balki xalqning ruhini uyg'otishga qaratilgan milliy uyg'onish edi. Ular erkin fikrlaydigan, o'z taqdiriga egalik qila oladigan jamiyatni orzu qildilar. Aynan shu orzu esa zo'ravon tuzumni larzaga solgan edi.

Xulosa. Mazkur maqolada jadidchilik harakati Sharq modernizatsiyasi jarayonida axloqiy ong transformatsiyasining muhim falsafiy omili sifatida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, jadidchilik nafaqat ta'lim va madaniyat sohasidagi islohotlar bilan cheklanib qolmagan, balki jamiyat a'zolarining axloqiy qarashlari, mas'uliyat hissi va ijtimoiy ongini yangilashga qaratilgan chuqur g'oyaviy harakat bo'lgan.

Jadid mutafakkirlari an'anaviy axloqiy qadriyatlarni inkor etmasdan, ularni zamon talablariga mos ravishda qayta talqin qilishga intildilar. Bu jarayon Sharq modernizatsiyasining o'ziga xos modelini shakllantirib, individual ongning uyg'onishi, erkin fikrlash va ijtimoiy faollikning kuchayishiga zamin yaratdi. Xulosa qilib aytganda, jadidchilik harakati Sharq modernizatsiyasida axloq va ong masalasini markaziy o'ringa qo'ygan falsafiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Uning g'oyaviy merosi bugungi globallashuv va ma'naviy inqiroz sharoitida ham dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, jamiyatni axloqiy jihatdan yangilash va barqaror taraqqiyotga erishishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqloq va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya. — 11.12.2023.

2. Ingeborg Baldauf **XX asr o'zbek adabiyotiga chizgilar.** - Toshkent:

⁵ Pardayev A. Jadidchilik — zamonaviy ongning shakllanishi sifatida. Oriental Renaissance: Innovative Educational, Cultural and Social Sciences. 2025, May.

Ma'naviyat, 2001.

3.Pardayev A. Jadidchilik —zamonaviy ongning shakllanishi sifatida // Oriental Renaissance: Innovative Educational, Cultural and Social Sciences.— 2025.— May. — Maqola.